ODIL YOQUBOV ROMANLARIDA UCH DO`ST ARXETIPI

Fotima Mamtaliyeva
Andijon davlat pedagogika instituti,
"O`zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7185600

Arxetip tushunchasini ommalashtirgan psixolog Karl Yung ta'limotiga ko`ra, arxetiplar insoniyat xotirasida "kollektiv ongsizlik" tarzida yashashi va ijod jarayonida turli shakllarda namoyon bo`lishi bilan xarakterlanadi. Demakki, kishilik jamiyatining eng ibtidoiy davrlarida paydo bo`lgan arxetipni muayyan ijodkor o`z davri xususiyatlari bilan boyitadi, natijada "ilk asos"ga ega bo`lgan motiv turli ko`rinishlarda asardan asarga ko`chib yuradi [1,37].

Odil Yoqubovning "Er boshiga ish tushsa…", Oqqushlar, opppoq qushlar" romanlarida uchraydigan uch do`st, uch og`ayni arxetipi ildizlari xalq og`zaki ijodidagi ertaklarga borib taqaladi. O`zbek xalq ertaklaridan "Cho`loq bo`ri", "Qilich qora", "Uch og`ayni botirlar", jahon ertaklaridan "Etik kiygan mushuk"da ayni shu arxetip namunalarini ko`ramiz. Ushbu ertaklarda, asosan, uch aka-ukaning turli sinovlarga uchrashi va kenja botirning sinovlardagi mardona jasorati, dovyurakligi aks etadi.

60-yillarda yaratilgan "Er boshiga ish tushsa…" romanida uch do`st obrazi arxetipik personajga xos shiddatli, jasur, mavjud voqelikka qarshi tura oladigan qahramonlardir. Romanda II jahon urushi davrida front ortidagi hayot 16-17 yoshli yigitlar – Mashrab, Qo`chqor, Akmalning do`stligi, haqiqat uchun kurashi, samimiy muhabbatiga yo`g`rilgan holda tasvirlangan. Ushbu arxetipning folklor bilan bog`liq yana bir jihati, roman personajlarining ertak qahramonlari singari qiyinchiliklar girdobida qolishidir. Har uchala yigitning otasi sho`ro hokimiyati uchun halol mehnat qilgani holda, bunga yarasha mukofot olmagani ortidan sodir bo`lgan vaziyat ularni yanada jipslashtiradi. Mashrabning otasi A'zam yacheyka yurt oldidagi xizmatlari hisobga olinmagani, Ertoyev kabi tuban kimsalarning tuxmati sabab vafot etadi, Qo`chqorning otasi Qilich – A'zam yacheykaning do`sti xotini Fotimaning xiyonati sabab qishloqni tark etadi. Akmalning otasi Eshmat – Eshvoy Ertoyevning xiylasi bilan frontga ketadi. Oilasi boshiga tushgan mushkulot hamda front ortidagi og`ir mehnat ularning do`stligini mustahkamlaydi.

Yozuvchi har bir qahramonning individual harakterini ta`kidlagan holda (Mashrabdagi shoir-u devonalik, Qo`chqordagi cho`rtkesar-chapanilik, Akmalning oilaparvarligi) ularga xos umumiy jihatlar (mehnatsevarlik, qiyinchilikdan qo`rqmaslik)ni voqealar rivoji davomida aks ettirib borgan. Ertaklarda og`aynilar qaroqchilar, dev-u ajdarlarga qarshi kurashgani kabi

romanda uch do`st Ertoyev va chavandozga qarama-qarshi bo`ladi. Ertoyev va Xolmat chavandoz boshliq kishilar xalqning g`allasini o`marishi, o`z yaqinlarini frontdan olib qolish uchun soxta hujjatlar bilan boshqalarni yuborishi Mashrab va uning ikki og`aynisi yordamida fosh bo`ladi.

Adabiyotshunos Jabbor Eshonqul "kenjatoylar ertak va dostonlarda akalaridan ayricha yo`l tutadigan va hamisha noan'anaviy fikrlaydigan personaj" ligini ta'kidlaydi [2,103]. Darhaqiqat, dunyo folklorida kenja o`g`il tipidagi qahramonlar o`zlarining mardona harakati sabab ajralib turadilar. Mashrabning shoirtabiatligi, do`stlari Akmal va Qo`chqordan bir yoshga kichikligi, shunday bo`lsa-da, yoshini katta yozdirib birga frontga ketishi uni kenja botir tipidagi qahramonga tenglashtiradi va Mashrabni roman bosh qahramoni darajasiga ko`taradi (ushbu epizod muallifning hayotidan olingani bilan ahamiyatli).

Roman so`nggida Qo`chqor va Mashrabning urushga, Akmalning o`qishga ketishi yigitlar uchun yangi sinovlar boshlanishini bildiradi.

Qisqa qilib aytganda, Odil Yoqubov xalqning og`ir kunlardagi hayotini inson umrining navqiron davri misolida tasvirlaydi. Bu davrda topish-yo`qotish, ayriliq, kechirish, muhabbat, vijdon kabi tushunchalar insonni to`g`ri yo`lga yetaklaydi.

Yozuvchining "Oq qushlar, oppoq qushlar" romanida esa uch do`st arxetipining yana bir o`zgargan varianti uchraydi. Mazkur asarda frontda bir-birini suyagan, umrbod do`st bo`lishga qasamyod qilgan Shorahim shovvoz, Muzaffar Farmonov, Rasul Nuriddinovlarning keyingi hayot yo`li tasvirlanadi. Amaldor, olim, bog`bonga aylangan uch jo`ra turli yo`llarni tanlagan bo`lsa-da, taqdir ularni yana bir-biriga ro`baro` qiladi.

Hayot daryosining turli o`zanida suzib yurgan do`stlar farzandlar manfaati sabab o`zaro teskari bo`lib qoladi.

Urushda Muzaffarni qutqargan, uni Gobi sahrosidan opichlab o`tgan Shorahim shovvoz aynan Muzaffarning o`g`li Fotihning nopok ishlari sabab aziyat chekadi. Muzaffar qarshisida ikki yo`l turadi – yo do`sti – haqiqat tomon bo`lish kerak, yoki o`g`li – obro`, amal tomon bo`lish. U busiz ham gullab-yashnagan davri so`nib borayotganini teran tushunadi. O`g`lining harakatlari bu jarayonni tezlashtiradi. Yozuvchi ilm – mansab qarama-qarshiligini Rasul – Muzaffar konflikti, xarom – halol kurashini Muzaffar – Shorahim qarama-qarshi obrazlari yordamida aks ettirgan.

Ushbu personajlarning keyingi hayot yo`lida yuz bergan voqealar realistik asarga xos bo`lib, barcha inson ham mansab, amal pillapoyalaridan ko`tarilib

borgan sari o`zidagi insoniylik, mehr, halollik tuyg`ularini saqlab qola olmasligi ishonarli tasvirlangan.

Shorahimning oilasidagi yo`qotishlar, Rasulning ilmiy faoliyatidagi to`siqlarga Muzaffar Farmonov sabab qilib ko`rsatiladi. Bunda tuzum emas, balki yuqori mansabdagilar aybdorligi g`oyasi ilgari suriladi. Bu haqda adabiyotshunoslar quyidagi fikrlarni bildirgan: "O`tgan asrning 70-yillari davomida va 80-yillar boshlarida o`zbek adabiyotidagi tendensiyaga ko`ra, ijtimoiy muammolarning ildizlari tuzum mohiyatiga emas, ayrim amaldorlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yuztuban ketishlariga bog`lab talqin qilindi" [3,190].

Adabiyotshunos Mashhura Sheraliyeva sho`ro hokimiyati davrida adabiyotda ta`qibchi – qurbon – xaloskor arxetipi aks etganini ta'kidlaydi [3,190]. Unga ko`ra o`z mansabini suiiste'mol qilgan amaldorlar ta'qibchi, amaldorlar zug`umi ostida ezilgan xalq – qurbon, sho`ro tuzumi esa "xaloskor" sifatida talqin qilingan. Ushbu tendensiya "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanida ham aynan uchraydi: Muzaffar Farmonov – ta'qibchi, Shorahim shovvoz – qurbon, Ivan Xaritonovich Beloborodov esa sho`ro tuzumi vakili sifatida xaloskor pozitsiyada aks etgan.

Umuman olganda, har ikki asardagi uch do`st arxetipi yozuvchining badiiy niyatini to`laqonli ifodalash, mavjud voqelikni ta'sirchan tasvirlash, oddiy xalqning mehnatsevarligini madh etishga xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Т.: «Akademnashr», 2013
2. Жаббор Эшонқул. Миф ва бадиий тафаккур. Т.: «Фан», 2019.
3. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. Т.: «Akademnashr», 2016
4. Ёқубов О. "Эр бошига иш тушса…". Roman. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Ёқубов О. "Оққушлар, оппоқ қушлар". Roman. Sharq yulduzi. 1986-yil. 5-6-7-son.